INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

XORAZM YODNOMALARI TILI VA UNING LEKSIK TARKIBI

Raufjon Maxmudov
filologiya fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim,
Nilufar Rahimberganova,
Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm yodnomalarining tili, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va leksikasiga xos ayrim so‘zlarning leksik-semantik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy tarixnavislik, tarixiy leksika, etimologiya,Xorazm yodnomalari, tarixiy manba, davlat rahbari.

Аннотация: В данной статье проведен лексико-семантический анализ некоторых слов, характерных для языка хорезмийских памятников, их специфики и лексики.

Ключевые слова: тюркская историография, историческая лексика, этимология,памятники Хорезма, исторический источник, глава государства.

Annotation: This article provides a lexical and semantic analysis of some words characteristic of the language of Khorezm monuments, their specifics and vocabulary.

Key words: Turkic historiography, historical vocabulary, etymology,monuments of Khorezm, historical source, head of state.

Xorazm yodnomalarining til xususiyatlarini o‘rganish bugungi o‘zbek tilshunosligi uchun bir necha jihatdan muhimdir. Birinchidan, bu yodgorliklar o‘zbek adabiy tilining mintaqaviy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan Xorazm lahjasining tarixiy qatlami haqida boy tasavvur beradi. Ikkinchidan, yodnomalarda uchraydigan leksik birliklar, arabcha, forscha, turkiy so‘zlarning o‘zaro nisbatlari o‘sha davr lingvistik jarayonlarini tiklashda, tilning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, yodnomalarning lug‘aviy boyligi orqali Xiva xonligi davridagi ma’muriy boshqaruv tizimi, harbiy terminologiya, iqtisodiy-ijtimoiy tushunchalar, diniy tasavvurlar, kundalik turmush leksikasi ham qayta tiklanadi.

Til va tarix uyg‘unligi yodnomalarning eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Chunki bu asarlar voqealarning ketma-ketligini bayon etish jarayonida o‘sha davrning tirik nutqiy muhitini, shu muhitning uslubiy mezonlarini aks ettiradi. Shu bois Xorazm yodnomalari faqat tarixiy manba emas, balki lingvo-tarixiy yodgorlik sifatida ham o‘rganiladi. N. Mallayev, A. Rustamov, S. Mirzaev, D. Yusupova, X. Xudoyberganov kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida Xorazm adabiy muhiti, yodnomalar tili, Ogahiy va Munisning lingvopoetikasiga bir necha bor murojaat qilganlar. Ammo yodnomalar tilining kompleks leksik tahlili, ayniqsa o‘zlashma qatlamning miqdoriy-sifat jihatdan tadqiqi hanuzgacha yetarli darajada mukammal o‘rganilmagan.

Xorazm yodnomalari tilining shakllanishi ko‘p asrlik tarixiy-ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Qadimgi Xorazm davlatchiligi, islom sivilizatsiyasining yoyilishi, arab-fors ilmiy-madaniy ta’sirlarining kuchayishi, turkiy qabilalar migratsiyasi, Xorazmning markaziy siyosiy-harbiy hudud sifatida yuksalishi — bularning barchasi yodnomalar tilida o‘z aksini topgan. Shuningdek, sulolaviy aloqalar, diplomatik maktublar, saroy an’analari va devon (kantselyariya) tili ham lug‘aviy qatlamning shakllanishida muhim o‘rin tutgan.

N.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi”, A.Rustamovning Xorazm adabiy muhiti bo‘yicha tadqiqotlari, H.Xudoyberganov, S.Mirzaev, R.Vohidov, N.Mahmudov, A.Qo‘shmatov kabi olimlarning asarlarida yodnomalar tiliga bevosita yoki bilvosita oid masalalar bayon etilgan. Shuningdek, “Firdavs ul-iqbol”, “Riyoz uddavla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshan ul-xoniy” kabi manbalarning matniyu tili asosiy faktologik bazani tashkil etadi.

Yodnomalar tili asosan turkiy tilning Xorazm variantida bo‘lsada, unda arabcha va forscha unsurlar sezilarli darajada ko‘p uchraydi. Buning sababi bir necha omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, diniy-ilmiy adabiyotning asosiy tili arab tili bo‘lgani uchun ko‘pgina diniy, ma’rifiy, ma’naviy tushunchalar arabcha atamalar orqali ifodalangan. Ikkinchidan, fors-tojik adabiy maktabi Sharq mumtoz adabiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida turkiy hududlarga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Uchinchidan, Xorazm saroy tili ko‘p qatlamli bo‘lganligi sababli diplomatik va ma’muriy terminologiyada forscha unsurlar ustunlik qilgan.

Xorazm yodnomalari tili o‘zining soddaligi, tabiiyligi, voqeabandligi, xalqona iboralarga boyligi bilan Ogahiy maktabining muhim belgisi hisoblanadi. Ularning tili nafaqat tarixiy voqelikni bayon etishga xizmat qiladi, balki muallifning uslubiy mahoratini, estetik didini, xalq og‘zaki ijodidan bahramandligini, adabiy an’analarga munosabatini aks ettiradi.

Xorazm yodnomalari Markaziy Osiyo tarixnavislik an’anasining yuksak bosqichini namoyon etuvchi noyob manbalar sirasiga kiradi. Ular XVII–XIX asrlarda Xiva xonligi hududida shakllangan tarixiy-biografik janrning eng yetuk namunalaridir. Bu yodgorliklarni ilmiy jihatdan o‘rganish XIX asr oxiri — XX asr boshlaridan boshlab davomli ravishda rivojlanib kelmoqda. Mazkur bo‘limda yodnomalarni o‘rganish jarayonining bosqichlari, tadqiqotchilar qarashlari, manbashunoslik masalalari va hozirgi zamon ilmiy yondashuvlari tizimli tahlil qilinadi.

Yodnomalar janri Sharq mumtoz adabiy-tarixiy an’anasida qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, “tavorix”, “silsilanoma”, “manoqib”, “tarjimai hol”, “nasabnoma” kabi janrlarga yaqin turadi. Xorazm hududida bu janrning jonlanishi Movarounnahr va Xurosondagi tarixnavislik maktablari bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, Nishopur, Buxoro, Hirot tarixiy maktablarida shakllangan genealogik-biografik yozuv modeli Xorazmda o‘ziga xos tarzda davom ettirilgan.

XVII–XIX asr Xorazm adabiy muhitining eng muhim xususiyati — saroy tarixchilik maktabining kuchli rivojlanishidir. Xonlik davrida siyosiy legitimlikni mustahkamlash, sulolaviy nasabni asoslab berish, hukmdorlar faoliyatini yoritish ehtiyojlari tufayli yodnomalar keng yaratilgan. Bu jarayon, o‘z navbatida, yodnomalarning til, uslub va kompozitsiya jihatidan shakllanishiga ta’sir qilgan.

Munisning “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiyning “Riyoz ud-davla”, “Zubdat at-tavorix”, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, Solihning “Gulshan ul-xoniy”, amalda mazkur janrning yetuk namunalaridir. Bu asarlar bir tomondan tarixiy voqealar ketma-ketligini aniq faktlar asosida bayon qilsa, boshqa tomondan, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va til muhiti haqida bevosita ma’lumot beradi.

Xorazm manbashunosligi bilan dastlab rus sharqshunoslik maktabi vakillari shug‘ullangan. A.Samoylovich, V.Velyaminov-Zernov, V.Bartold kabi olimlar turkiy qo‘lyozmalarni to‘plash, kataloglashtirish, matnlarini taqqoslash ishlarini boshlaganlar. Ayniqsa, V. Bartold Xiva xonligi tarixi bo‘yicha bir nechta maqolalarida Munis va Ogahiy asarlarini tarixiy manba sifatida baholagan [Bartold, 1913].

A.Samoylovich esa Xorazmiy turkiy tilning fonetik-morfologik xususiyatlarini o‘rganishda yodnomalardan asosiy manba sifatida foydalangan [Samoylovich, 1924]. Uning kuzatishlari keyinchalik Xorazm tilining mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilishda muhim dastlabki ilmiy baza vazifasini bajardi.

XX asr boshida turkiy qo‘lyozmalarni nashrga tayyorlash va tavsiflash ishlari shakllana boshladi. Bu jarayonda S.Mirzaev, A.Fitrat, Q.Munirov kabi olimlar Xorazm yozma merosining ayrim namunalari haqida izohlar berganlar. Ammo bu davrdagi tadqiqotlar asosan tarixiy faktlar yoki matnshunoslik masalalariga doir bo‘lib, lingvistik tahlil keng miqyosda olib borilmagan.

XX asr o‘rtalaridan boshlab yodnomalar tilining lingvistik tahlili alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. O‘zbek filologiyasi maktabining yetuk vakillari — N.Mallayev, A.Rustamov, S.Mirzaev, M.Yo‘ldoshevlarning ilmiy izlanishlarida Munis-Ogahiy maktabi muhim obyekt sifatida qayd etildi.

N.Mallayev o‘zining “O‘zbek adabiyoti tarixi” asarida yodnomalarning badiiy-tarixiy ahamiyatini yoritgan bo‘lsa, A.Rustamov ularning tiliga oid mahsus tadqiqotlar olib bordi. Rustamov, xususan, “Ogahiy ijodi va tarixnavislik an’analari” nomli tadqiqotida yodnomalarning til boyligini, uslubiy xususiyatlarini maxsus guruhlar bo‘yicha tahlil qilgan.

Shuningdek, S.Mirzaev tomonidan Xorazm qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi, matnlarning filologik ekspertizasi, geneologik va tarixiy mazmuni tadqiq etildi. Mirzaev yodnomalardagi leksik qatlamning uch turga — turkiy qatlam, arabcha qatlam va forscha qatlamga ajralishini belgilab berdi. Bu tasnif keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bu tadqiqotlar yodnomalar tilini ilmiy izohlashda muhim bosqich bo‘ldi, ammo ularning leksik tizimi to‘liq miqdoriy-sifat jihatdan o‘rganilmagan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy manbalarni qayta nashr etish va chuqur o‘rganish jarayoni kuchaydi. Bu jarayonda Xorazm tarixiy maktabi va Munis-Ogahiy ijodi bo‘yicha qator fundamental tadqiqotlar yaratildi. Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asari, Solihning “Gulshan ul-xoniy” asari qayta nashr etilib, izohlar bilan chop etildi.

H.Xudoyberganov Xorazm adabiy tilining struktur xususiyatlarini, fonetik-grammatik qatlamini, sheva va adabiy til nisbatlarini tadqiq etdi. Uning tadqiqotlarida yodnomalar tili Xorazm adabiy maktabining til tarixidagi o‘rni bilan bog‘liq holda o‘rganilgan.

D.Yusupova, X.Bobojonov kabi olimlar tomonidan yodnomalarning tarixiy-badiiy qiymati, syujet tuzilishi, tarixiy reallikning tasviri bo‘yicha ko‘plab maqolalar e’lon qilindi. Leksikologiya va etimologiya bo‘yicha amalga oshirilgan zamonaviy tadqiqotlar esa yodnomalardagi o‘zlashmalarni tizimli ravishda qayd etishga imkon berdi.

Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning yangi jihati shundaki, ular endilikda: vohaning til tarixini umumturkiy kontekstda o‘rganish; yodnomalardagi mahalliy leksik birliklarni aniqlash; arabcha-forscha o‘zlashmalarning semantik guruhlarini belgilash; yodnomalarning tilini matn lingvistikasi asosida tahlil qilish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oldi.

Bu esa yodnomalar tilining mintaqaviy va umumturkiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yuksak ilmiy salohiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yodnomalar faqat tarixiy voqealar ketma-ketligini bayon qiluvchi yodgorlik emas, balki o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy, maishiy, ma’naviy hayotini aks ettiruvchi kompleks manbadir. Ayniqsa, ularning leksik boyligi orqali ko‘plab tarixiy konseptlarni qayta tiklash mumkin:

a) saroy devoni tizimi va unvonlari (“mehtar”, “muhrdor”, “parvonachi”, “dodxoh”, “sadr”, “shig‘ovul” va b.);

b) harbiy bo‘linmalar terminologiyasi (“korovul”, “navkar”, “to‘pchiboshi”, “yasovul”);

c) iqtisodiy so‘zlar (“boj”, “zakot”, “tamg‘a”, “tovar”, “karxona”);

d) diniy-tasavvufiy istilohlar (“avliyo”, “sohibqiron”, “illat”, “sifat”, “ma’rifat”);

e) xalqona turmush leksikasi (oziq-ovqat, kiyim, hunarmandchilik atamalari).

Bu atamalarni manba sifatida o‘rganish Xorazm vohasi hayotidagi tarixiy jarayonlarni yanada aniqroq talqin etishga yordam beradi.

Yodnomalarni o‘rganishda bir qator manbashunoslik muammolari mavjud:

1) Qo‘lyozmalar xilma-xilligi. Ko‘pgina yodnomalar bir nechta qo‘lyozma nusxalarda mavjud. Nusxalar o‘rtasida:

a) imlo farqlari,
b) fonetik yozuv tafovutlari,
c) muqova (kolofon)dagi sanalar tafovuti,
d) ba'zan syujet ketma-ketligidagi o'zgarishlar uchraydi.

Matnshunoslik tahlili bu farqlarni aniqlashni talab qiladi.

2) Tilning ko'p qatlamlilik xususiyati. Yodnomalarda uch til — turkiy, arab, fors unsurlari birgalikda qo'llanadi. Ba'zan bir jumla ichida ham uch xil qatlam sintezlashgan holda keladi. Bu holat etimologik tadqiqotlarni murakkablashtiradi.

3) Mahalliy leksik birliklarning identifikatsiyasi. Xorazmiy shevaga xos so'zlarni umumturkiy kontekstdan ajratish hamisha oson emas. Masalan: "yow", "shovur", "qovurqa", "shullik", "tahmon" kabi so'zlar ko'p hududlarda uchramaydi.

4) Tarixiy kontekstga bog'liqlik. Ba'zi atamalar faqat o'ziga xos tarixiy vazifani bajaradi: "xiroj", "nishon", "mirzaboshi", "tanob", "hazorlik" va b.

5) Uning mazmuniy-huquqiy tabiatini sharhlash. Yodnomalar ba'zan hukmdorni madhiy olamida talqin qilish natijasida subyektivlikka ega bo'ladi. Bu tadqiqotchi uchun qo'shimcha manba solishtirishni talab qiladi.

Bugungi kunda yodnomalar quyidagi ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilmoqda:

a) kompyuter lingvistika metodlari — matnning avtomatik lemmatizatsiyasi, chastota lug'atlarini tuzish;
b) korpus lingvistikasi — yodnomalar asosida mintaqaviy tarixiy korpus yaratish;
c) kognitiv lingvistika — tarixiy konseptlarni (hukmdor, davlat, adolat, kuch, sipoh, in'om) tahlil qilish;
d) semantik-pragmatik tahlil — yodnomalarning nutqiy strategiyasini o'rganish.

Bu metodlar yodnomalar tilining ko'p qatlamli tabiatini yanada chuqurroq ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

Xorazm tarixiy-madaniy hududi o'rta asrlardan boshlab o'ziga xos tarixnavislik an'analarini shakllantirgan bo'lib, bu jarayon yodnomalarning yuzaga kelishi va janr sifatida takomillashuviga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Mahalliy tarixnavislik maktablari, ayniqsa, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Urganch, Kat va Xiva o'chog'larida shakllangan adabiy-ilmiy muhit yodnomalarning mazmuniy doirasini kengaytirgan, ularni faqat shaxsga doir esdalik emas, balki tarixiy-madaniy xotira manbasi darajasiga olib chiqqan.

XI asr boshlarida shakllangan Ma'mun akademiyasi atrofida to'plangan olimlar – Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Ibn Iroq kabi mutafakkirlar Xorazmda ilmiy fikr evolyutsiyasiga asos solgan edilar. Bu muhitda:

a) shaxslar faoliyatini qayd etish,
b) ilmiy merosni hujjatlashtirish,
c) siyosiy voqealar hamda hukmdorlar faoliyatiga oid ma'lumotlarni muntazam jamlash kabi an'analar shakllandi. Bu jarayon yodnomalarning dastlabki ko'rinishlari – ilmiy-biografik bayonnomalarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Beruniy asarlarida uchraydigan "zikr", "tazkira", "man qalamtu" kabi iboralar yodnoma janrining boshlang'ich shaklini anglatadi. Shu sababli Xorazm yodnomalarining ildizi faqat adabiy an'anada emas, balki ilmiy-biografik qaydlarda ham mavjud.

XIV–XVIII asrlarda Xorazm hududida shakllangan tarixiy maktablar – Munis, Ogahiy, Bayoniy, Xorazmiy va boshqalar faoliyati yodnomachilikning yuksalish bosqichini belgilaydi. Ayniqsa:

a) Munisning "Firdavs ul-iqbol",

b) Ogahiyning “Riyoz ud-davla”,
c) Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”

singari asarlarda hukmdorlar, amaldorlar, shoirlar va tarixiy shaxslar haqida berilgan biografik ma’lumotlar yodnomalarning kelgusi taraqqiyotiga asos bo‘ldi.

Bu asarlar ikki xil qatlamni mujassam etadi:

1. Tarixiy voqealar bayoni (xronologik manzaralar)
2. Shaxsiy ta’riflar – yodnomaviy qatlam

Aynan ikkinchi qatlam – hukmdorlar, davlat arboblari, shoirlar va olimlar haqida munosabat, xarakteristika va taassurotlarni aks ettiruvchi ma’lumotlar keyinchalik mustaqil yodnomalarga aylangan.

XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligi saroyida yodnomachilik an’anasi yanada mustahkamlandi. Bu jarayonning asosiy omillari:

a) saroy devonida kotiblik maktabining rivojlanishi;
b) tarixiy voqealarni muntazam qayd qilib borish ehtiyojining kuchayishi;
c) shaxsiy taassurot va kuzatuvlarni rasmiy hujjatlar bilan uyg‘unlashtirish.

Ayniqsa Ogahiy ijodida yodnomaviy qatlam yuksak darajaga ko‘tarildi. Uning asarlarida hukmdorlar faoliyati bilan bir qatorda ularning shaxsiy fazilatlari, odob-axloqi, odatlari, ilm-fanga munosabati, saroydagi muhit haqidagi kuzatuvlar ham beriladi. Bu xususiyat Xorazm yodnomalarining o‘ziga xos uslubiy tamoyilini belgilaydi.

Xorazm yodnomalarining tilida forsiy qatlamning kuchli bo‘lishi tabiiy hodisa bo‘lib, bu jarayon tarixiy, siyosiy, adabiy va madaniy omillar bilan izohlanadi.

Xorazmning uzoq asrlar davomida Eron sivilizatsiyasi bilan uzviy aloqada bo‘lishi forsiy tilning rasmiy-adabiy muhitda keng qo‘llanishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa:

a) Somoniylar,
b) G‘aznaviylar,
c) Xorazmshohlar davlati,
d) Temuriylar va Mang‘itlar davri

bilan madaniy aloqalar natijasida forsiy leksika turkiy matnlarga faol kirib borgan. Yodnomalarda uchraydigan “hikoyat”, “xotira”, “voqeot”, “tabaqa”, “ravza”, “manzuma”, “tazkira”, “sarguzasht” kabi terminlar aynan forsiy tarixiy-adabiy leksik qatlamga mansub.

Yodnomaviy janrning shakllanishiga forsiy adabiyotning quyidagi namunalari bevosita ta’sir ko‘rsatgan:

a) Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy”
b) Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chor maqola”si
c) Juvayniy, Rashididdin, Vassof, Hamdulloh Qazviniy asarlari

Ularda uchraydigan balog‘atli nasr, tazkira uslubi, sarguzasht bayoni kabi janriy unsurlar Xorazm yodnomalariga ko‘chgan.

Forsiy an’anaga xos:

a) metaforik tasvir,
b) maqtoviy iboralar,
c) hikmatli jumlalar,
d) tarixiy shaxsni maqtov orqali tasvirlash

kabi uslubiy vositalar Xorazm yodnomalarida sezilarli kuchga ega.

Xorazm yodnomalarida forsiy leksika asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Janriy belgilovchi leksika (tazkira, manoqib, rivoyat, sarguzasht).

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index:* *google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

2. Tarixiy voqealar bayonidagi terminlar (fath, iqbol, saltanat, iqta, amir, mavlono).
3. Shaxsiy sifat va fazilatlar ta’rifi (fuzala, zakovat, himmat, karam, muruvvat).
4. Adabiy-estetik bezak (isti’ora, tashbeh, laqabiy sifatlar).

Bu holat yodnomalarni faqat tarixiy matn emas, balki adabiy-badiiy asar sifatida qabul qilish imkonini beradi.

Xorazm yodnomalarining til qurilishi murakkab tarixiy qatlamlashuv mahsuli bo‘lib, unda turkiy asosiy leksika bilan birga forsiy, arabiy hamda qisman qadimgi o‘g‘uz-qipchoq unsurlari ham faol ishtirok etadi. Forsiy qatlam ayniqsa yodnomalarning janriy tuzilishi va stilistik ohangini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu bobda forsiy unsurlarning leksik-semantik, morfologik, sintaktik va stilistik aspektlardagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munis, Shermuhammad. Firdavs ul-iqbol. — Toshkent: Fan, 1960.
2. Ogahiy, Muhammad Rizo. Riyoz ud-davla. — Toshkent: Fan, 1961.
3. Ogahiy, Muhammad Rizo. Zubdat ut-tavorix. — Toshkent: Fan, 1962.
4. Ogahiy, Muhammad Rizo. Gulshan ul-muluk. — Toshkent: Fan, 1971.
5. Bayoniy, Muhammad Yusuf. Shajarayi Xorazmshohiy. — Toshkent: Fan, 1995.
6. Karimov B. “Xorazm yodnomalari tilida forsiy unsurlar grammatik adaptatsiyasi.” // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, №3.
7. Yusupov H. “Ogahiy tarixiy nasrining lingvostilistik xususiyatlari.” // Filologiya masalalari, 2018, №2.
8. Rahimov J. “Xorazm adabiy maktabi va tazkiranavislik an’analari.” // Sharqshunoslik jurnali, 2017, №1.